



## CHO'LPON HIKOYALARIDA BADIY DETALNING QO'LLANILISHI

*FarDU talabalari* **Mushtariy Abdunabiyeva,**  
**Shohina Farhodjonova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulhamid Cho'lpon hikoyalarida qo'llanilgan detallar tahlil qilingan. Hikoyada keltirilgan detallar asar kompozitsiyasi, hikoyaning mazmuni, Cho'lpon yashagan davr va undagi ijtimoiy- siyosiy masalalarni yoritishdagi o'rni tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy uyg'onish davri adabiyoti, hikoya, detal, qahramon, konflikt, jaholat, peyzaj, jadid

Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan mazkur harakat g'oyalarning adabiy-badiiy ifodasi edi. Lekin gap shundaki, u jadidchilikning shunchaki bir ko'rgazmasi (illyustratsiyasi) bo'lib qolmadi, chinakam adabiyotga aylandi. U yangi adabiyotni boshlab berdi, avji taraqqiysi 1915-1925 yillarga to'g'ri keldi.[1, 4]

Cho'lpon aynan shu davrning eng mashhur namoyandalaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy adabiyotning deyarli hamma turi bilan faol shug'ullandi. Cho'lpon nosir sifatida ham adabiyotimizda salmoqli o'rin tutadi. Jumladan, uning "Qurboni jaholat", "Do'xtur Muhammadiyor", "Novvoy qiz", "Qor qo'ynida lola", "O'ktabr qizi" va bir qator hikoyalarini keltishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotning har bir janrida detallarning mahorat bilan qo'llanilishi ahamiyatli, albatta. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, hikoya janrida detalning o'z o'rni bor.

O'quvchi asarni diqqat bilan o'qisa va detallarga ahamiyat bersa, ular "tilga kiradi" va o'quvchi voqelikni to'laqonli va aniq his etadi. Hikoyada muhimi detalni topishdir. Agar uni topa olsangiz, - deydi yozuvchi, u sizga butun xarakterlarni yoritib beradi, undan syujet ham, fikr ham, g'oya ham o'sib chiqaveradi. Detalning kuchi va mazmuni shundaki, tomchida quyosh aks etganidek, eng kichik detal o'zida asarning butun g'oyasini mujassam etadi.[2, 35]

Biz bu holatni Cho'lponning bir qator hikoyalarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, uning "Qurboni jaholat" hikoyasi bosh qahramoni Eshmurod va uning taqdirini falokatli yakun topishiga sabab bo'lgan jaholat, ilmsizlik edi. Biz hikoyani o'qir ekanmiz, bir qancha detallarga duch kelamiz. Ulardan biri soat detalidir. Hikoyada soat detali ikki o'rinda qo'llanilgan. Birinchisi Eshmurodning uyida "Ul soatni mundan bir-ikki hafta muqaddam Eshmurodning otasiga bir yaqin do'sti hadya qilgan edi. Eshmurod oni yaxshi ko'rub otasidan so'rab olgan edi". Eshmurodning uyiga mehmonga kelgan Mo'minjon uning yaqin do'sti edi. Mo'minjonning yoshligidan o'g'rilik odati bor edi va u soatni o'g'irlab ketadi. Ikkinchi o'rinda "Boyagi besoqol mingboshining qozuqda



*osilinib turgan oltin soatini o'g'irlab qo'yniga urdi*". Shu o'rinda bir narsaga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Cho'lpon nima uchun aynan devor soatini tanlagan, qo'l soatini yoki cho'ntak soatini emas? Bu orqali Cho'lpon umrni va vaqtni ifodalagan. Bundan kelib chiqadiki, Cho'lpon hamma soatni ya'ni vaqtni ko'rib turgani ta'kidlagan. Uning o'g'irlanishini orqali bizdan vaqtimiz va kelajagimizni tortib olingani, ammo bundan bizning xabarimiz yo'q ekanligi yoritilgan. Eshmurod har qancha ehtiyotkor bo'lsa ham u soatni o'g'irlatib qo'ydi va buni o'zi ham payqamadi. Bu epizodning hikoya boshida berilishi orqali Eshmorodning taqdiri bir qancha ma'lum bo'ladi. Hikoyada keltirilgan har ikki soat ham o'z egalaridan o'g'irlanadi. Bu tasvirlarning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, soatni begonalar emas, balki aynan xalqimiz vakillari, shu bilan birga jamiyatning hurmatli va ishonchli insonlari *"eshon domlaning o'g'li bo'lub turub birovning narsasini olarmidi?!"* tomonidan o'g'irlanishi bizning eng og'riqli nuqtamiz edi. Bu tasvirlar orqali Cho'lpon XX asr hayotining eng jirkanch va ayanchli tomonlarini yoritib bergan. Shuningdek, mingboshi soatining topilishi va aksincha Eshmurod soatining topilmasligi ham hikoya mazmunini yoritib berishdagi muhim o'rinlardan biri bo'lgan. Bu o'rinda yana shuni ham aytishimiz joizki, hikoyada soat detali inson umriga ham ishora qilyapti, ya'ni Eshmurod soatidan ayrilishi va uni topa olmasligi, uning umrining yakun topishiga qilingan ishoralardan biri.

Shuningdek, Cho'lpon bu hikoyada qahramonlarga ism tanlash mahoratini ham namoyon qilgan. Eshmurodning do'stiga ya'ni soatni o'g'irlagan qahramonga Mo'minjon ismining berilishida namoyon bo'lgan. Bu esa hikoyada o'zaro qarshilantirishni yuzaga keltirgan va bu orqali o'quvchi his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatilgan.

Cho'lponning "O'ktabr qizi" hikoyasida qo'llanilgan detallar hikoya mazmunini yanada yaqqol yoritishga xizmat qilgan. Hikoyaning ekspozitsiya qismida keltirilgan bir qator tasvirlar, hikoyaning yakuniga ishora qiladi. Hikoyaning bosh qahramoni Vannaychaxon (xalqning o'zi unga bu nomni qo'ydi) sahnaga qadam qo'yib, kuylashni boshlashi bilan *"keng va uzun sahn go'r tinchligi, o'lim jimjitligida yotqon edi"*. Shuningdek, peyzaj tasviri va Vannaychaxonning taqdiri o'zaro parallel tarzda tasvirlanadi. *"Bir sovuq shamol keldi. Daraxtlar sarg'aygon barglarini chirs-chirs uzub yerning qora quchog'iga irg'itdilar"*. Bu tasvirlar orqali kitobxon bir mudhish voqea yuz berganini anglaydi. *"Yiroqlardan qarg'alarning mudhish nag'malari, shodlik kuylari eshitaladi"*. Bundan ma'lum bo'ladiki, *"Vannaychaxon o'lgan... Vannaychaxonni eri o'ldirgan"*. Xalq o'z xonandasi, nafaqat xonandasi, balki o'z qizidan ayrildi. Vannaychaxon kuylagan qo'shiqlar oddiy qo'shiqlar emas, balki *"o'zbek qizining o'z og'zidan, o'z tili bilan to'kilgan o'zbek dardlari"* edi. Xalq bu qo'shiqlarni jon-u dilidan sevdi. Sababi bu qo'shiqlar begona tilidan emas, balki o'z qizi tilidan aytilayotgan edi.

Cho'lponning bu ikki hikoyasini umumlashtiruvchi bir qator jihatlar mavjud. Jumladan, har ikki hikoyaning bosh qahramoni jaholat va ma'rifatsizlik qurboni bo'ldi va yana bir achinarli jihati, ularni bu ahvolga solgan kimsalar notanish insonlar emas edi. Shuningdek, ularni bog'lab turuvchi yana bir jihat har ikki qahramon o'z davrining



mavjud tuzum va qoidalaridan xalos bo'lishga harakat qilgan va qaysidir ma'noda bunga erishgan insonlar edi.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, Cho'lponning "Qurboni jaholat" va "O'ktabr qizi" hikoyalarida badiiy detallardan mahorat bilan foydalanilgan va bu orqali ijodkorning badiiy mahorati yaqqol namoyon bo'lgan. Qo'llanilgan detallar hikoyaning mazmunini to'liq va aniq ochib berishga xizmat qilgan. "O'ktabr qizi" hikoyasida keltirilgan detallar bevosita voqealar rivoji bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, qo'llanilgan detallarga bir qator falsafiylik yuklangan va buning natijasida detallarning qiymati yana ham oshgan. Ayniqsa, peyzaj tasvirida keltirilgan detallar XX asr boshlari o'zbek hikoyachiligining shakllanishi va uning rivojlanishi uchun muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Cho'lpon qalamiga mansub hikoyalarning deyarli barchasida o'zi yashagan davrning eng dolzarb muammolari yoritilgan. Shuningdek, qo'llanilgan detallar orqali XX asr hayoti va unda mavjud bir qator konfliktlar yoritib berilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Qosimov B , Yusupov Sh , Dolimov U , Rizayev Sh , Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti.-Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
4. Qayumov Abduvahob. Detal va badiiy tasvir. O'zbek tili va adabiyoti. 2008/02.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A. Qodiriy, 2004.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
7. Cho'lpon. Asarlar II jild – Toshkent: Adabiy-badiiy nashr, 1994.
8. ziyouz.com sayti.